“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Agrar sohada yer to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining tushunchasi, predmeti va obyekti

Ulugbek Karimov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Kafedra dotsenti
e-mail: karimov_ux@mail.ru

Аннотация. Maqolada agrar sohada yer to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining tushunchasi, predmeti va obyekti o‘zaro bog‘liq, ammo mustaqil nazariy kategoriyalar sifatida tahlil qilingan. Milliy va xorijiy olimlarning prokurornazoratining davlat-huquqiy tabiati, uni maxsus davlat nazoratidan farqlash, predmetningqonuniylik mezoni va obyektning subyektlar faoliyati bilan bog‘liqligi haqidagi qarashlari qiyosiy o‘rganilgan. Agrar yer munosabatlarining maxsus huquqiy rejimi hisobga olinib, prokuror nazorati tushunchasi, predmeti va obyektiga mualliflik ta'riflari taklif etilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasida belgilangan nazorat predmetining huquqiy chegaralaridan kelib chiqib, qonunlarning ijro etilishi hamda tegishli subyektlar qabul qilayotgan hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi prokuror nazorati predmetining asosiy tarkibiy qismlari ekani asoslangan. Harakat va harakatsizlik esa qonun ijrosining amaliy ko‘rinishi sifatida baholangan.

Калит сўзлар. prokuror nazorati, agrar soha, yer qonunchiligi, qishloq xo‘jaligi yerlari, nazorat tushunchasi, nazorat predmeti, nazorat obyekti, qonuniylik, huquqiy hujjat, harakatsizlik.

Аннотация. В статье понятие, предмет и объект прокурорского надзора за исполнением земельного законодательства в аграрной сфере рассматриваются как взаимосвязанные, но самостоятельные теоретические категории. Сопоставлены позиции национальных и зарубежных ученых о государственно-правовой природе прокурорского надзора, его разграничениисо специальным государственным контролем, критерии законности при определении предметаи связи объекта с деятельностью поднадзорных субъектов. С учетом специального правовогорежима сельскохозяйственных земель предложены авторские определения понятия, предмета и объекта прокурорского надзора. На основе статьи 20 Закона Республики Узбекистан «О прокуратуре» обосновано, что основными элементами предмета надзора являются исполнение законов, а также соответствие Конституции и законам правовых актов, принимаемых соответствующими субъектами, а действия и бездействие рассматриваются как формы практической реализации либо неисполнения требований закона.

Ключевые слова. прокурорский надзор, аграрная сфера, земельное законодательство, сельскохозяйственные земли, понятие надзора, предмет надзора, объект надзора, законность, правовой акт, бездействие.

Annotation. The article examines the concept, subject matter and object of prosecutorial supervision over the implementation of land legislation in the agrarian sector as interrelated but independent theoretical categories. It compares national and foreign scholarly approaches to the public-law nature of prosecutorial supervision, its distinction from specialized state control, the legality criterion defining the subject matter, and the link between the object of supervision and the activities of supervised entities. Taking into account the special legal regime of agricultural land, the article proposes authorial definitions of the concept, subject matter and object of prosecutorial supervision. Based on Article 20 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Prosecutor's Office", the article substantiates that the principal elements of the subject matter of supervision are compliance with laws and the conformity of legal acts adopted by relevant entities with the Constitution and laws, while actions and omissions are treated as practical manifestations of compliance with or failure to comply with legal requirements.

Keywords. prosecutorial supervision, agrarian sector, land legislation, agricultural land, concept of supervision, subject matter of supervision, object of supervision, legality, legal act, omission.

Agrar sohada yer to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini ilmiy jihatdan to‘g‘ri ifodalash uchun uning tushunchasi, predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalarini bir-biridan aniq ajratish zarur. Ushbu kategoriyalar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ularning har biri prokuror nazoratining alohida huquqiy jihatini ifodalaydi. Tushuncha prokuror nazoratining umumiy huquqiy mohiyatini, predmet prokuror nimaning qonuniyligini tekshirishi va baholashini, obyekt esa nazorat qaysi subyektlar faoliyatiga qaratilganini anglatadi. Maqsad nazorat natijasida erishilishi lozim bo‘lgan huquqiy holatni, vazifalar esa ushbu maqsadga erishishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

Agrar sohada bunday farq ayniqsa muhim. Chunki qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarishning asosiy vositasi, cheklangan tabiiy resurs va davlat muhofazasidagi boylik hisoblanadi.

Mavjud ilmiy yondashuvlar ushbu tushunchalar bo‘yicha yagona qarash shakllanmaganini ko‘rsatadi. Ayrim olimlar prokuror nazorati predmetini qonunlar ijrosi va huquqiy hujjatlar qonuniyligi bilan bog‘lasa, boshqalar uni ijtimoiy munosabatlar yoki huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan faoliyat mazmuni orqali tushuntiradi. Obyekt masalasida ham organlar va mansabdor shaxslar bilan bir qatorda huquqiy hujjatlarni obyekt sifatida baholash holatlari uchraydi.

Prokuror nazoratining tushunchasini belgilashda milliy olimlar uni, avvalo, prokuratura organlariga xos davlat-huquqiy faoliyat

sifatida talqin qiladilar. Misol uchun, A. Komilov prokuror nazorati mazmunini qonunbuzilishlarni aniqlash, ularga huquqiy baho berish, qonuniylikni tiklash, qonunbuzilish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda profilaktika bilan bog‘laydi. Uning «qonun buzilishi holatlarini o‘z vaqtida va tezkorlik bilan aniqlash» haqidagi fikri prokuror nazoratining faol huquqiy ta'sir xususiyatini ko‘rsatadi [1].

O. Madaliyev prokuror nazoratini O‘zbekiston Respublikasi nomidan Konstitutsiya va qonunlarning aniq hamda bir xilda bajarilishi ustidan amalga oshiriladigan prokuratura organlarining maxsus davlat faoliyati sifatida ta'riflaydi[2]. M. Rustambayev esa prokuror nazoratini qonun buzilishini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat sifatida ifodalaydi[3]. Ushbu qarashlarning umumiy jihati prokuror nazoratining davlat nomidan amalga oshirilishi, qonuniylikka asoslanishi va huquqiy ta'sir xususiyatiga egaligidadir. Biroq, agrar sohada ushbu umumiy belgilar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ajratish, ulardan foydalanish va muhofaza qilishning maxsus huquqiy rejimi bilan aniqlashtirilishi lozim.

B. Po‘latov prokuror nazoratini maxsus davlat nazorati bilan tenglashtirmaslik zarurligini asoslaydi. Bu yondashuv agrar sohada ham muhim ahamiyatga ega. Prokuratura maxsus yer nazorati organlarining qonun bilan belgilangan vazifalarini bajarmaydi, balki ularning faoliyati va qabul qilgan qarorlarining qonuniyligini baholaydi. Demak, prokuror nazoratining asosiy mezoni qonuniylik va qonunda belgilangan vakolat doirasi hisoblanadi.

Soha xususiyatlaridan kelib chiqib, V. Aliyev agrosanoat majmuida prokuror nazoratini qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan va sohaning o‘ziga xos munosabatlarini hisobga oluvchi prokurorlik faoliyati sifatida yoritadi. M. Miroshnichenko esa, yerlarni muhofaza qilish sohasida prokuratura faoliyatini nazorat va nazoratdan tashqari huquqiy vositalar uyg‘unligida ko‘radi[4]. Aliyev agrar ixtisoslashuvga, Miroshnichenko esa prokuratura faoliyatida qo‘llaniladigan huquqiy vositalar doirasiga urg‘u beradi. Bizningcha, agrar yerlar bo‘yicha prokuror nazoratini prokuraturaning yangi mustaqil funksiyasi sifatida emas, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmet jihatdan ixtisoslashgan yo‘nalishi sifatida baholash to‘g‘riroq.

V. Yastrebov qonunlar ijrosi ustidan nazoratni prokuratura faoliyatining mazmun-mohiyatini ifodalovchi asosiy funksiya sifatida baholaydi[5]. M. Shalumov esa, prokuror nazorati bilan davlat nazorati vakolatlarini farqlash zarurligini ta'kidlaydi[6]. Uning yondashuviga ko‘ra, prokuror faoliyatining asosiy mezoni qonuniylik bo‘lib, prokuratura maxsus nazorat organlari yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qonun bilan yuklatilgan vazifalarni o‘z zimmasiga olmasligi kerak. Shu sababli prokuror yerdan foydalanishning iqtisodiy yoki agrotexnik jihatdan maqbulligini belgilamaydi, balki ushbu sohada qonun talablariga rioya

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

etilgan-etilmaganiga huquqiy baho beradi.

J. Vologina, E. Gafurzyanov va I. Farxutdinovlar agrar qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni agrar munosabatlarning koʻp tarmoqliligi va yerning maxsus huquqiy maqomini hisobga oluvchi predmet jihatdan ixtisoslashgan yoʻnalish sifatida koʻradilar[7]. Ye. Kunisьina ham tabiiy resurslar sohasida prokuror nazoratini Konstitutsiya va qonunlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan maxsus davlat faoliyati sifatida ifodalaydi[8].

A. Baldin, Ya. Aliyev va F. Rumyansev yer qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazoratini huquqni qoʻllash amaliyoti samaradorligini ta'minlash va qonunbuzilishga oʻz vaqtida munosabat bildirish vositasi sifatida baholaydilar[9]. Bu yondashuv prokuror nazorati natijadorligini faqat tekshiruvlar soni bilan emas, balki noqonuniy huquqiy holatning bartaraf etilishi, buzilgan huquqlarning tiklanishi va huquqbuzarlik sabablariga ta'sir koʻrsatilishi bilan baholash imkonini beradi.

Milliy va xorijiy qarashlarni qiyoslash prokuror nazorati tushunchasining asosiy belgilarini ajratish imkonini beradi. A. Komilov, O. Madaliyev va M. Rustambayev uning davlat-huquqiy xususiyatini, B. Poʻlatov maxsus davlat nazorati bilan chegarasini, V. Aliyev va M. Miroshnichenko esa sohaviy xususiyatlarini ochib beradi.

Shundan kelib chiqib, agrar sohada yer toʻgʻrisidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini prokuratura organlari tomonidan davlat nomidan, qonunda belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshiriladigan hamda qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarni ajratish, ulardan foydalanish va muhofaza qilish sohasida qonunlar ijrosiga huquqiy baho berishga qaratilgan prokuror nazoratining ixtisoslashgan yoʻnalishi sifatida ta'riflash maqsadga muvofiq.

Prokuror nazorati predmetini aniqlashda asosiy masala “prokuror aynan nimaning qonuniyligini tekshiradi va baholaydi?” degan savolga javob berishdan iborat. A. Komilov predmetni normativ-huquqiy mezon bilan, M. Abduxakimov esa agrar yer munosabatlarining maxsus mazmuni bilan bogʻlaydi. A. Komilov nazorat predmetida qonunlarning ijro etilishi va qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiqligi markaziy oʻrin egallashi lozimligini ta'kidlaydi[10].

Ushbu yondashuv Oʻzbekiston Respublikasining “Prokuratura toʻgʻrisida”gi Qonuni 20-moddasi mazmuniga bevosita mos keladi. Mazkur modda prokuror nazorati predmetini belgilashda asosiy normativ mezon hisoblanadi. Unga koʻra, tegishli organlar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular qabul qilayotgan hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi nazorat predmetini tashkil etadi[11]. Demak, Qonun nazorat predmetining ikki asosiy tarkibiy qismini belgilaydi: birinchisi – qonunlarning ijro etilishi, ikkinchisi – qabul qilingan huquqiy hujjatlarning qonuniyligi. Shu bilan birga, agrar sohada qonun talablarini amalga oshirish tartibi koʻp hollarda qonunosti hujjatlarida aniqlashtiriladi. Bunday hujjatlar prokuror

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

nazoratining mustaqil predmeti sifatida emas, balki qonun talabining amalda qanday bajarilayotganini aniqlashda huquqiy asoslardan biri sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

M. Abduxakimov yer to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati predmetini keng mazmunda yoritib, unda fuqarolarning yerga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish, yerdan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, tabiiy muhitni asrash, yerga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va qonuniylikni mustahkamlash kabi yo‘nalishlarni ko‘rsatadi[12]. Mazkur yondashuv yer munosabatlarining maxsus xususiyatlarini keng qamrab olishi bilan ahamiyatli. Biroq unda predmet, maqsad va vazifalarga xos elementlar bir ta'rif ichida aralashib ketgan. Masalan, huquqbuzarliklarni aniqlash va qonuniylikni mustahkamlash prokuror nazorati predmetini emas, nazorat oldida turgan vazifalar va kutilayotgan huquqiy natijani ifodalaydi. Shu sababli predmet ta'rifida prokuror nimaning qonuniyligini baholashiga doir elementlar ustuvor bo‘lishi lozim.

O. Kalugina yer qonunchiligi bo‘yicha nazorat predmetini aniqlashda normativ-huquqiy hujjatlar doirasi hamda qonun ijrosi, harakat, harakatsizlik va huquqiy hujjatlar qonuniyligi baholanadigan subyektlar doirasini ajratadi[13]. D. Patlayev qonunni amalga oshirish mexanizmini ochuvchi qonunosti hujjatlarini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi[14]. V. Aliyev predmetga Konstitutsiyaga rioya etish, qonunlar va ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi normativ hujjatlar ijrosi, shuningdek nazorat ostidagi subyektlar huquqiy hujjatlarining qonuniyligini kiritadi[15]. M. Kleponosova esa fuqarolarning yerga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etilishini markazga qo‘yadi[16]. Birinchi yondashuv normativ qamrovni, ikkinchisi esa huquqlarni himoya qilish jihatini ochib beradi.

Biroq “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun 20-moddasi nuqtayi nazaridan predmetning asosini, avvalo, qonunlarning ijro etilishi va huquqiy hujjatlarning qonuniyligi tashkil etadi. Fuqarolarning yerga bo‘lgan huquqlari, davlat va jamiyat manfaatlari esa ushbu qonunlar ijrosi orqali muhofaza qilinadigan huquqiy qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

O. Voroninning “prokuror nazoratining huquqiy xususiyati nazorat ostidagi shaxslar faoliyatiga yuridik baho berishdan iborat” degan fikri prokuror nazoratining huquqiy tabiatini aniq ifodalaydi[17]. U obyektni nazorat ostidagi subyektlar faoliyati, predmetni esa shu faoliyatning tashqi yuridik ifodalari bilan bog‘laydi. Bizningcha, predmet va obyektni farqlashda yanada aniq mezondan foydalanish lozim, ya'ni qonunlarning ijro etilishi va huquqiy hujjatlarning qonuniyligi predmetni, ularni amalga oshirayotgan yoki qabul qilayotgan subyektlarning faoliyati esa obyektni tashkil etadi.

T. Sushina prokuror nazorati predmetini tushunishda huquqiy normaning xususiyati muhim ekanini ta'kidlaydi[18]. Ushbu yondashuv prokurorning qonun doirasida subyektning o‘zi hal

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy va tashkiliy masalalarga asossiz aralashuvini cheklash nuqtayi nazaridan ahamiyatli. Biroq, agrar sohada asosiy mezon normaning formal turi emas, balki unda belgilangan talabning majburiyligi va uning bajarilishi qonun bilan talab etilishidir.

V.B. Yastrebov va V.V. Yastrebov nazorat predmetini organlar, tashkilotlar va shaxslarning harakatlari hamda qabul qilgan hujjatlarining qonunga muvofiqligini baholash bilan bog‘laydilar va maqsadga muvofiqlikni prokuror nazorati mezoni sifatida qabul qilmaydilar. Agrar sohada harakat va harakatsizlikni alohida mustaqil predmet sifatida emas, qonun ijrosining amaliy ifodasi sifatida ko‘rish maqbul. Masalan, vakolatli organ qonunda belgilangan majburiy chorani ko‘rmasa, uning harakatsizligi qonun ijro etilmaganini ko‘rsatadi va shu asosda prokuror tomonidan huquqiy baholanadi.

Yer qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazoratini maxsus tadqiq etgan V. Lavrov nazorat predmetini yerdan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid qonunlar ijrosi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarning qonunga muvofiqligi bilan bog‘laydi.

Predmet bo‘yicha qarashlar masalaning turli tomonlarini ochadi. A. Komilov huquqiy mezonga, M. Abduxakimov sohaviy mazmunga, O. Voronin yuridik baholashga, T. Sushina majburiy normalar xususiyatiga, Yastrebovlar qonuniylik mezoniga, V. Lavrov esa yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid qonunlar ijrosiga urg‘u beradi. Ularni “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasi bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, agrar yer munosabatlari nazorat amal qiladigan sohani belgilasa, prokuror nazorati predmetini ushbu sohada qonunlarning ijro etilishi va vakolatli subyektlar qabul qilayotgan huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiqligi tashkil etadi. Harakat va harakatsizlik esa qonun ijrosi holatini baholashda hisobga olinadigan amaliy ko‘rinishlardir.

Shundan kelib chiqib, agrar sohada yer to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmeti bu, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ajratish, ularga bo‘lgan huquqlarni belgilash, o‘zgartirish va bekor qilish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish, shuningdek yer sohasida davlat boshqaruvi va nazoratini amalga oshirish jarayonida qonunlarning ijro etilishi hamda vakolatli subyektlar qabul qilayotgan huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligidir deb hisoblash mumkin.

Prokuror nazoratining obyekti predmet bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, ularni bir xil tushuncha sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Agar predmet “nimaning qonuniyligi tekshiriladi va baholanadi?” degan savolga javob bersa, obyekt “ushbu nazorat qaysi subyektlar faoliyatiga nisbatan amalga oshiriladi?” degan savolga javob beradi. Predmet va obyektni bunday farqlash prokuror vakolatining chegarasini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Nazorat obyekti boʻyicha qarashlar ham bir xil emas. M. Abduxakimov agrar sohaning real ishtirokchilari boʻlgan fermer va klasterlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi, ayrim yondashuvlarda esa huquqiy hujjatlar ham obyekt doirasiga kiritiladi. Bizningcha, huquqiy hujjatning qonuniyligi predmetga, uni qabul qilgan organ, tashkilot yoki mansabdor shaxsning faoliyati esa obyektga taalluqli boʻlishi lozim. Bu yondashuv predmet va obyekt oʻrtasidagi nazariy chegarani aniq belgilaydi.

M. Abduxakimov yer qonunchiligi boʻyicha nazorat obyektini belgilashda qonunda koʻrsatilgan subyektlardan tashqari yerdan foydalanuvchilar, jumladan fermer va klasterlarni ham hisobga olishni taklif qiladi. Bu fikr agrar sohaning real subyektlar tarkibini aks ettirishi bilan ahamiyatli. Qishloq xoʻjaligi yerlaridan fermer xoʻjaliklari, klasterlar va boshqa subyektlar foydalanadi, huquqbuzarlik ularning harakati yoki harakatsizligi bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkin. Biroq, fermer, klaster yoki boshqa yerdan foydalanuvchining faoliyati faqat prokuraturaning qonunda belgilangan vakolati tatbiq etiladigan va majburiy huquqiy talablarning bajarilishini baholash zarur boʻlgan hollardagina prokuror nazorati obyekti sifatida qaralishi mumkin.

A. Komilov va M. Abduxakimovning ayrim yondashuvlarida qonuniyligi oʻrganiladigan huquqiy hujjatlar ham obyekt tarkibiga kiritiladi. Amaliyotda prokuror bunday hujjatlarni oʻrganadi. Ammo nazariy jihatdan qaror, farmoyish, shartnoma yoki boshqa hujjat uni qabul qilgan subyekt faoliyatining huquqiy ifodasidir. Shuning uchun hujjatning qonuniyligi prokuror nazorati predmetiga, uni qabul qilgan subyektning faoliyati esa nazorat obyektiga kiritilishi maqbul.

N. Mixlina huquqiy faoliyat obyektini huquq orqali tartibga solinadigan ijtimoiy voqelik, predmetni esa uning bevosita huquqiy ta'sirga duchor boʻladigan qismi sifatida farqlaydi. Bu yondashuv sohaviy muhit bilan bevosita nazorat obyektini aralashtirmaslikka yordam beradi. Ye. Butылina yerning koʻp vazifali huquqiy tabiatini, ya'ni uni tabiiy obyekt, tabiiy resurs, koʻchmas mulk va huquq obyekti sifatida baholash zarurligini koʻrsatadi. Bu fikr qishloq xoʻjaligi yerlarining maxsus huquqiy ahamiyatini ochib beradi. Biroq yerning oʻzi prokuror nazoratining bevosita obyekti hisoblanmaydi. Yer — qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlarning moddiy asosi, prokuror esa yerga nisbatan qonunda belgilangan vakolat va majburiyatlarni amalga oshirayotgan subyektlar faoliyatining qonuniyligini baholaydi.

O. Kalugina davlat va mahalliy organlar bilan bir qatorda yuridik shaxslarning boshqaruv organlari hamda qonun bilan qamrab olingan boshqa subyektlarni ham nazorat doirasida koʻradi. Bu qonunbuzilish yerdan foydalanuvchining harakati yoki harakatsizligi bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi. Biroq, har bir xoʻjalik yurituvchi subyekt avtomatik ravishda prokuror nazorati obyekti hisoblanmaydi. Bu yerda asosiy mezon – mazkur subyektga nisbatan prokuraturaning qonunda belgilangan

vakolati mavjudligi va uning faoliyatida majburiy huquqiy talablarning ijrosini baholash zaruratidir.

T. Sushina obyektni subyektning tashkiliy nomi bilan emas, uning bajarayotgan yuridik funksiyasi bilan bog‘laydi. K. Bijanova esa prokuror tekshiruv o‘tkazish vakolati tatbiq etiladigan davlat, mahalliy va nazorat organlari hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni nazorat obyektlari qatoriga kiritadi. Ushbu qarashlarni umumlashtirganda, agrar sohada prokuror nazorati obyektini subyektning nomi yoki tashkiliy-huquqiy shakli emas, balki uning yer munosabatlarida qonun bilan belgilangan vakolat yoki majburiyatni amalga oshirishi hamda ushbu faoliyatga nisbatan prokuratura vakolatining mavjudligi belgilashi lozim.

Shundan kelib chiqib, agrar sohada yer to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining obyekti – prokuratura vakolati doirasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ajratish, hisobga olish, ularga bo‘lgan huquqlarni rasmiylashtirish, ulardan foydalanish va muhofaza qilish, shuningdek ushbu sohada davlat boshqaruvi va nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq vakolat va majburiyatlarni bajarayotgan davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa subyektlarning faoliyatidir.

O‘tkazilgan tahlil agrar sohada prokuror nazoratining tushunchasi, predmeti va obyektini bir ta'rif doirasida aralashtirish nazariy va amaliy noaniqlikka olib kelishini ko‘rsatadi.

Birinchidan, agrar sohada yer to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmet jihatdan ixtisoslashgan yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim.

Ikkinchidan, nazorat predmetini belgilashda O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasi asosiy normativ mezon hisoblanadi. Unga ko‘ra, nazorat predmetining asosini qonunlarning ijro etilishi va vakolatli subyektlar qabul qilayotgan huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiqligi tashkil etadi. Harakat va harakatsizlik esa qonun talablarining bajarilishi yoki bajarilmaganini ifodalovchi amaliy holatlar sifatida huquqiy baholanadi.

Uchinchidan, nazorat obyekti huquqiy hujjat yoki yer uchastkasining o‘zi emas, balki prokuratura vakolati doirasida yerga oid qonunlarda belgilangan vakolat va majburiyatlarni amalga oshirayotgan subyektlar faoliyati hisoblanadi.

To‘rtinchidan, bunday yondashuv prokuratura bilan maxsus yer nazorati organlarining vakolatlarini aniq ajratishga, shu bilan birga qishloq xo‘jaligi yerlarini ajratish, ulardan foydalanish va muhofaza qilish sohasida qonun talablarining ijrosiga to‘liq huquqiy baho berishga imkon beradi.

Shu tariqa, tushuncha, predmet va obyektni aniq ajratish agrar sohada prokuror nazoratining huquqiy chegaralarini belgilash, prokuror vakolatlarini to‘g‘ri qo‘llash va maxsus davlat nazorati

organlari bilan vazifalar takrorlanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комилов А.Б. Тадбиркорларни ҳуқуқий ҳимоя қилишга қаратилган қонунлар ижроси устидан прокурор назоратининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 12–13.

2. Мадалиев О.М. Прокурор назорати: дарслик. Умумий қисм. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2009. – 424 б. – Б. 45–46.

3. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва прокуратураси: рисола / масъул муҳаррир А.Х. Саидов. – Тошкент: ТДЮИ, 2005. – Б. 8–12.

4. Мирошниченко М.Н. Деятельность прокуратуры по обеспечению исполнения законодательства об охране земель в промышленном регионе: дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2009. – С. 57–58.

5. Ястребов В.Б. Надзор за исполнением законов как основная функция прокуратуры // Проблемы совершенствования прокурорского надзора: сборник научных трудов. – Москва, 1997. – С. 17–20.

6. Шалумов М.С. Прокурорский надзор и государственный контроль за исполнением законов: разграничение компетенции и ответственности // Государство и право. – 1999. – № 1. – С. 79–85.

7.Вологина Ж.Ю., Гафурзянов Э.К., Фархутдинов И.Н. Прокурорский надзор за исполнением аграрного законодательства // Законность и правопорядок в современном обществе. – С. 149–153.

8.Куницына Е.А. Правовые и организационные основы прокурорского надзора за исполнением лесного законодательства: дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2014. – С. 60–61, 73–75.

9.Балдин А.К., Алиев Я.Л., Румянцев Ф.П. Отдельные вопросы прокурорского надзора за исполнением земельного законодательства // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. – 2019. – № 4. – С. 87–92.

10. Комилов А.Б. Тадбиркорларни ҳуқуқий ҳимоя қилишга қаратилган қонунлар ижроси устидан прокурор назоратининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 13, 20.

11. Ўзбекистон Республикасининг «Прокуратура тўғрисида»ги Қонуни (янги таҳрири), 20-модда // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.08.2025 й., 03/25/1081/0738-сон.

12. Абдухакимов М.Т. Ер тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг ижроси устидан прокурор назоратини такомиллаштириш масалалари: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2023. – Б. 13, 18–19.

13. Калугина О.В. Прокурорский надзор за исполнением земельного законодательства в Российской Федерации: дис. … канд. юрид. наук. – Москва, 2013. – С. 19–20.

14. Патлаев Д.Е. Предмет прокурорского надзора за исполнением законов о распоряжении землей // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Право. – 2016. – С. 227–234, хусусан С. 234.

15. Алиев В.А. Проблемы совершенствования прокурорского надзора за исполнением законодательства в системе агропромышленного комплекса России: дис. … канд. юрид. наук. – Москва, 2004. – С. 120–121.

16. Клепоносова М.В. Прокурорский надзор за соблюдением конституционных прав граждан на землю: дис. … канд. юрид. наук. – Москва, 2000. – С. 16–20.

17. Воронин О.В. О сущности современного прокурорского надзора // Уголовная юстиция. – 2018. – № 11. – С. 183–189, хусусан С. 183–185. – DOI: 10.17223/23088451/11/37.

18. Сушина Т.Е. Правовая норма в контексте предмета прокурорского надзора // Актуальные проблемы российского права. – 2016. – № 8 (69). – С. 160–168, хусусан С. 165–166. – DOI: 10.17803/1994-1471.2016.69.8.160-168.